

## ICHIMLIK SUVINI SAMARALI ZARARSIZLANTIRISH USULLARI

**Elmurodova Lenara Xudoyberdi qizi**  
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti  
Gigiyena kafedrasи assistenti  
[lenaraelmurodova97@gmail.com](mailto:lenaraelmurodova97@gmail.com)

**Mahammadiyev B.F**  
**Ibragimova F.Ch**  
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti  
Tibbiy profilaktika fakulteti 4-kurs 403-guruh talabaları

### *ANNOTATSIYA*

*Hozirgi kunda ichimlik suvi, uning ifloslanishi va ifloslangan suvlarni tozalash hamda oqova suvlarni zararsizlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada respublika aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va mavjud oqova suvlardan foydalanish masalalari yoritib berilgan. Mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ichimlik suvini tozalash, organoleptik xususiyat, suvni xlорlash, normal dozada xlорlash, ortiqcha xlорlash, adsorbsiya, koagulyatsiya, alyuminiy sulfat.

### *ABSTRACT*

*Nowadays, drinking water, it's pollution and treatment of contaminated water and disinfection of waste water are one of the urgent problems. This article describes the issues of providing the population of the republic with clean drinking water and the use of existing waste water. Proposals and recommendations have been developed regarding the rational use of existing water resources and elimination of existing deficiencies.*

**Key words:** purification of drinking water, organoleptic properties, water chlorination, normal dose chlorination, excessive chlorination, adsorption, coagulation, aluminum sulfate.

## Kirish

Aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida gigiyenik talablarning amaliyotga tadbiq etilishi, laboratoriya tekshiruvni uchun olinadigan sinamalarni asosiy ko'rsatkichlariga bog'liqdir. Bularni suv tarmog'i inshootlarini sanitariya nuqtai-nazari bo'yicha tekshirish, shu jumladan mahalliy suvlarni sanitariya holatini kuzatish bilan amalga oshiriladi. Suv omili bir qator yuqumli kasalliklar (qorin tifi, paratif, ichburug', vabo, gepatit, sil, sibir yarasi, amyobiaz, gelmintoz va boshqalar) ni, noyuqumli bo'lgan kasalliklar (Urov kasalligi, endemik buqoq, endemic flyuroz va karies, suvnitratli metgemoglobeniya va boshqalar) ni tarqalishida va kelib chiqishida katta ahamiyatga ega. Iste'molchilarga yuborilayotgan suvni tasodifan yoki muntazam ifloslanishdan muhofaza qilish uchun sanitariya himoya mintaqalarini tashkil qilish va suv tarmog'i tizimini germetik mahkamlash moslamalarini o'rnatish yo'llari bilan himoya qilinishi zarur.

## Materiallar va metodlar

Iste'molchilarga yuborilayotgan ichimlik suvining sifati quyida ko'rsatilgan joylarda, uning tarkibi va xususiyatlari bo'yicha baholanadi: suvni olish joylarida, suv ta'minoti manbalaridan suvni tarmoqlariga berishdan avval va taqsimlovchi tarmoqda. Tarmoqqa yuborilayotgan suvning sifati suv manbasining qanday bo'lishidan, sifatini yaxshilash usullaridan foydalanish, suv tarmog'i quvurlarining konstruksiyalari o'ziga xosligidan qat'iy nazar suvning sifat tarkibi va xususiyatlari quyidagi gigiyenik talablarga javob berishi zarur: 1) uning epidemik tomonidan xavfsiz bo'lishi; 2) kimyoviy tarkibi bo'yicha zararsiz bo'lishi; 3) yoqimli organoleptik xususiyatlarga ega bo'lishi; 4) radiatsiya va 5) parazitologik tomonidan xavfsiz bo'lishi kerak.

## O'rganish natijalari

Hozirgi kunda aholini toza va sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida suvni xlорlash Respublika miqyosida eng ko'p qo'llanilayotgan usuldir. Hozirgi vaqtida aholiga tarqatilayotgan suv xoh ochiq suv havzasi suvi xoh yerosti suvi bo'lishidan

qat'iy nazar albatta xlorlanishi zarur. Ichimlik suvini zararsizlantirishda xlor birikmalari va ozondan foydalanilganda, ularning qoldiq miqdorlari har – bir soatda aniqlab turilishi shart.

Reagentlar	Nazorat qilish joyi	Qoldiq miqdori mg.1	Suv bilan reagentni muloqot vaqtি
Xlor qoldig'i	Toza suv saqlash rezervuarlaridan so'ng	0.2-0.5	Kamida 30 daqiqadan so'ng
Ozon qoldig'i	Aralashish kamerasidan so'ng	0.1-0.3	Kamida 12 daqiqadan so'ng

Suvni xlorlash odatda kalsiy gipoxlorit Ca(ClO)<sub>2</sub> yordamida amalga oshiriladi, tarkibida 70% gacha faol xlor mavjud. Bunda xlorlashning ikkita usuli qo'llaniladi: normal dozalarda xlorlash va va katta dozalarda xlorlash - ortiqcha xlorlash. Keyingi yillarda suvni xlorlashning yangi usuli ishlab chiqildi. Bunda elektrolit sifatida maxsus tayyorlangan natriy xlorid eritmasi, yuqori minerallashgan yerosti suvi yoki dengiz suvidan foydalanish mumkin. Bunda gipoxlorid elektroliz yo'li bilan vodoprovod stansiyasida olinib suvlarni zararsizlantirish uchun ishlatiladi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy jihatdan tejamli usul hisoblanadi. Suvni tozalashda yuqorida aytilgan sifatga erishish uchun, suvni taylorlashda mineral tarkibi oz miqdorda o'zgarsada zararli komponentlarni ajratishga tayangan adsorbsiya usulini qo'lash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga kimyoviy tarkibini saqlagan va suv sifatini yaxshilashga qaratilgan adsorbsiya va singdirish bir moddaning boshqasiga qanday taqsimlanishida farq qiladi. Adsorbsiya paytida, singdirish va moddaning tarqalishi suyuqlik yutuvchi butun hajmida sodir bo'ladi. Adsorbsiya paytida adsorbanning qattiq qismida (qattiq yoki suyuqlik yuzasida) qattiq, suyuq yoki gazsimon sorbat to'planadi.

Adsorbsiya jarayoni uch bosqichdan iborat:

- eritmadiagi moddalarni adsorbent donalari yuzasiga (tashqi diffuziya mintaqasiga) o'tkazish;
- adsorbsiya jarayoni;

Ichimlik suvi sifatini koagulyatsiya usulida yaxshilashni sanitar baholash.

Suvni koagulyatsiya qilish jarayonida hal qiluvchi rolni koagulyantning optimal dozasini to‘g‘ri tanlab olish o‘ynaydi. Koagulyantning optimal dozasi tanlab olish laboratoriya usulida olib boriladi. Optimal dozasini tanlab olish uchun 5% Alyuminiy sulfat eritmasi olinadi, eritmaning bir millilitri 50 mg moddani tutadi. Suvning ishqoriyligini har bir gradusiga 39,6 mg  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  eritmasi to‘g‘ri kelsa 11 ga 5% Alyuminiy sulfat eritmasidan 0,8ml to‘g‘ri keladi. Shunday holda X ml 5%  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  eritmasi:

$$\frac{39,6}{50}$$

$$X = \frac{39,6}{50} = 0.79 \text{ ml } 5\% \text{ } \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3;$$

Koagulyantning taxminiy dozasini aniqlash quyidagicha o‘tkaziladi: buning uchun 10ta kolba olinadi. Har bir kolbaga 11 dan tekshirilayotgan suv solinadi. So‘ngra har – bir gradus ishqoriylikka kerakligicha qo‘shiladi.

Kolbalar	Koagulyantning % dagi hisob-kitob miqdori	Kolbalar	Koagulyantning % dagi hisob-kitob miqdori
1	100	2	90
3	80	4	70
5	60	6	50
7	40	8	30
9	20	10	10

Koagulyatsiya tozalangan alyuminiy sulfat bilan amalga oshiriladi. Alkalizatsiya uchun sodali suv ishlatiladi. Tozalash texnologiyasi ichimlik suvining yetarlicha barqaror sifatini ta’minlamaydi, chunki manba suvida vaqtiga vaqtiga bilan organik moddalarning ko‘payishi kuzatiladi. Koagulyant(alyuminiy sulfat) dozasini oshirishga urinishlar kerakli samarani bermaydi, aksincha, suvda qoldiq alyuminiy kontsentratsiyasi oshadi. Bu holat tabiiy suv tarkibining o‘ziga xos xususiyatlaridan

kelib chiqib, zamonaviy talablarga javob beradigan samaraliroq texnologiya – ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish bo‘yicha ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

**Xulosa.** Ushbu jarayondan ko‘rinib turibdiki suv sifatini yaxshilash usullari orasida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonni olib borishda sinchkovlik

va masuliyat talab etiladi. Suvni zararsizlantirishning gigiyenik ahamiyati shundan

iboratki suv har tomonlama mikroorganizmlardan, osilma zarrachalardan tozalanadi. Gigiyenik jihatdan 950:2011 DavST lariga javob berishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kommunal gigiyena – Sh.Otaboyev.
2. T.Abdullaev., Ichimlik va texnik suvlarni tozalash, o‘quv qo‘llanma, Toshkent - 1979, O‘zbekiston nashriyoti (1979).
3. Tuxtarov B. E., Elmurodova L. X. Q. O‘ZBEKİSTONDA TERI LEYSHMANIOZINING TARQALISHI VA UNİNG OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 42-48.
4. Otoboev SH. T., Iskandarov T. I. 0 86 Kommunal gigie
5. Maxmatmurot o‘g‘li S. M. BOLALAR VA O‘SMIRLARDА TEMIR TANQISLIGI ANEMİYASI. – 2023.
6. Мусаева О. Т., Элмуродова Л. Х., Халирова Б. Р. Старение Как Область Научных Исследований И Организация Гериатрической Медицинской Помощи //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. –2023. –Т. 4. –№. 2. –С. 317-322.
7. Tuichievna M. O., Elmurodova L. K., Rasulovna K. B. The Main Age-Related Diseases and Conditions Common among Elderly Men and Women //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. –2023. –T. 2. –№. 3. –C. 37-43.
8. Tuxtarov B. E., Mirmuhsin Maxmatmurot O. G. ‘Li Soatov, Mohira Zayniddin Qizi Saydaliyeva UMUMTA’LIM MAK TABLARI VA MAK TABGACHA

TA'LIM MUASSASALARILARDA BOLALAR VA O'SMIRLAR

GIGIYENASINING TUTGAN O'RNI //Scientific progress. – 2023. – №. 2.

9. Mirmuhsin S. et al. MAKTAB JIHOZLARNING O 'QUVCHILAR SALOMATLIK HOLATIGA TA'SIRINI GIGIENIK TAHLILI //Involta Scientific Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 193-202.

10. qizi Elmurodova L. X. et al. SUVNI KOAGULYATSIYA QILISHNING GIGIENIK AHAMIYATI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 30. – С. 67-71.